



TARIX DARSALARINI YUQORI SAVIYADA TASHKIL ETISHDA

QO'LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR

Интерактивные методы, используемые
в организации уроков истории на
высоком уровне

Interactive methods used in the organization
of history lessons at a high level

Xoliqov Shuhrat Yulbasovich

Andijon shahar AQXAI qoshidagi akademik
litseyining tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda uzlusiz ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta'lifi standartlariga javob bera oladigan ilg'or tajribalarni ommalashtirish hamda ta'lif-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish uchun qo'llanadigan usullar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье описаны основы реформ, реализуемых в системе непрерывного образования в нашей стране, популяризация передового опыта, способного соответствовать мировым стандартам образования, и методы, используемые для достижения высокой эффективности при меньших физических усилиях в образовательном процессе.

Abstract: This article describes the basis of the reforms implemented in the continuous education system in our country, popularization of best practices that can meet world education standards, and methods used to achieve high efficiency with less physical effort in the educational process.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: tarix darslarini mazmunli tashkil etish, darslarda zamonaviy yondashish.

Цель написания данной статьи: содержательная организация уроков истории, современный подход на уроках.



The purpose of writing this article: meaningful organization of history lessons, modern approach in lessons.

Usullar: “Mavzuga zamin” , “Sinkveyn”, “QORA QUTI”, “Ikki qismlik kundalik”, “Xulosa-daraxt hosilida” , “ANTIVIRUS”, “Buyuk devor”, “Oqibat”, “Yo‘l xaritasi”.

Методы: «От земли к предмету», «Зеленый проход», «ЧЕРНЫЙ ЯЩИК», «Дневник из двух частей», «Сводка-обрезка деревьев», «АНТИВИРУС», «Великая стена», «Последствие», «Дорожная карта».

Methods: "Ground to the subject", "Sinkway", "BLACK BOX", "Two-part diary", "Summary-tree crop", "ANTIVIRUS", "The Great Wall", "Consequence", "Roadmap".

Natija: O‘quvchilarga tarixiy xotirasiz kelajakni yarata olmasliklarini tushuntirish. **Результат:** Объяснить учащимся, что они не могут создавать будущее без исторической памяти.

Result: To explain to students that they cannot create the future without historical memory.

Kalit so’zlar: tarix, qiziqarli o‘yinli, mavzuga zamin, xulosa-daraxt hosili, guruh.

Ключевые слова: история, веселая игра, тематическая предыстория, дерево выводов, группа.

Key words: history, fun game, theme background, conclusion tree, group.

Hozirgi vaqtda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o‘quvchilarining ilm olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ta’lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o‘qituvchi va o‘quvchilarining haqiqatni birgalikda izlashi va o‘quvchilarining butun dars jarayonida faol ishtirok etishidir. Albatta, bu o‘rinda o‘qituvchiga yangi pedagogik texnologiyalar qo‘l kelishi amaliyot ko‘rsatib turibdi. Hozirgi zamon har bir fan o‘qituvchisi zimmasiga inson, uning

jamiyatdagi o'rni va roliga har tamonlama qarash vazifasini yuklaydi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va usullarini egallashi va shu bilan birga o'zi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratishga, shaxsni tarbiyalashning yangi, a'nanaviy, samarali usullarini tanlashga harakat qilishi hamda ijodkor bo'lmosh'i lozim. Maktablarda o'qitilayotgan ijtimoiy, shu jumladan tarix fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya ahamiyat kasb etadi. Maktabda o'quvchi kishilik jamiyati bosib o'tgan yo'lni, ularning chet el bosqinchilariga qarshi, o'z ozodligi va baxt-saodati, porloq kelajagi uchun olib borgan kurashlari haqidagi asosiy ma'lumotlarni tarix darslaridan bilib oladi. Shu bilan birga tarix darslari o'quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashga yordamlashadi. Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Tarix fanini kelajakni ko'rsatuvchi „Ko'zgu” desak bo'ladi va bu ko'zguga qarab har qanday inson, jamiyat, xalq o'z kelajagini belgilab olishi mumkin.¹

Hozirgi kunda O'zbekiston rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin egallashi onson kechgani yo'q. Shuning uchun tarixni o'qitish jarayonida o'quvchilar bugungi kunning qadriga yetishini, o'tmishda yo'l qo'yilgan xatolarni takrorlamaslikni, o'tmishdagi xatolardan xulosa chiqarib olishini o'rgatish lozimdir. Qolaversa maktabda tarix fanini o'qitish orqali o'quvchilarda o'zlari mustaqil va ijodiy fiklplashini rivojlantirishga, miliy ong va tafakkurni o'stirishga, eng asosiysi ma'naviy barkamol shaxsni, haqiqiy vatanparvar insonni tarbiyalab voyaga yetkazishga ahamiyat berish lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog xodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak. Bizga ma'lumki, tarix fanining asosini ma'lumotlar tashkil etadi. Ularni to'liq eslab qolishi o'quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug'dirishi mumkin (ayrim past o'zlashtiruvchi o'quvchilar). Bu kabi ma'lumotlarni o'quvchilar xotirasida bir umrga esda qolishi, turli xil sahnali ko'rinishlar, qiziqarli o'yinli usullar, krossvordlar, guruhlar bilan ishlash, bahs-munozaralar olib borishiga bog'liq.

¹Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Toshkent-2017-yil, 23-bet

“Mavzuga zamin” usuli.

Maqsad: O‘quvchilarni o‘tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni darsga tayyorlash ya’ni zamin hozirlash. Bizga ma’lumki o‘quvchilar mavzuni o‘qituvchi tushuntirib berishi chog‘ida va o‘zi darslikdan o‘qib o‘zlashtirishi mumkin. Lekin bu degani sinfda hamma o‘quvchilar o‘zlashtira oladi degani emas. Chunki hamma o‘quvchilarning xotirasi, fikrlash doirasi birdayin bo‘lmaydi. Shuning uchun ularga turli xil o‘yinlar, sahnali ko‘rinishlar, bahsmunozaralar orqali darslar tashkil qilinsa, sinfdagi uncha yaxshi o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilar ham mavzu haqida tushuncha hosil qilibgina qolmasdan, mustahkamlab oladi. Dars jarayonida o‘tilgan mavzuni mustahkamlash chog‘ida, avvalombor, o‘quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o‘tilishi, o‘quvchilarning yaxshi o‘zlashtira olishi eng birinchi navbatda o‘qituvchi o‘quvchilarni o‘ziga jalb qilishi, o‘tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o‘tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o‘quvchilarni o‘tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog‘liq. Bu usul ko‘proq o‘quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o‘tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlataladi. Bu usul 5-11-sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Guruhlar belgilanadi. O‘quvchilar guruhlarga 5- 7 kishidan bo‘linishlari kerak. Guruhlarga bo‘lish chog‘ida guruhlarning kuchlari teng bo‘lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o‘zlashtira oladigan o‘quvchilarni va unga yaxshi o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarni joylashtirib bo‘lish kerak. Har bir guruh o‘ziga nom qo‘yish kerak. Buning uchun o‘qituvchi guruhlarga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhga nom qo‘yayotganda quyidagilarga e’tibor bering?” Siz guruhingizga o‘tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so‘zlar yoki o‘tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so‘zlar orqali nom qo‘ying; Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo‘yanligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har bir guruh nom qo‘yib bo‘lgandan

so'ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo'yganligi so'ralishi kerak. Yuqoridagilarni o'tkazib bo'lgandan so'ng, o'quvchilar o'tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, o'quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar, topshiriqlar berish mumkin.

"Xulosa-daraxt hosilida" usuli.

Maqsad: "Xulosa-daraxt hosilida"—Mavzuning asosiy mazmunini keltirib chiqaruvchi savollarga javob berish natijasida tahlil qilinib, yakuniy xulosani keltirib chiqaruvchi o'yinli usuldir. Bu o'yinli usul orqali o'quvchi mavzuning asosiy xulosasasini chiqarishni va bir-biri bilan fikr almashinib, voqealar bayonini yorotib borishni ta'minlaydi.

Qo'llash bosqichlaribo'yicha tavsiyalar:

1. Ko'proq o'tilgan mavzuni mustahkamlash chog'ida ishlatalishi kerak.

2. Bu usul 5-9-sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. „Xulosa-daraxt hosilida” usulini o'tkazish uvhun birinchi navbatda plakatga yoki sinf taxtasiga (1-rasmda berilgan) daraxt chiziladi va daraxt novdalariga mavzuning asosiy mazmunini tashkil etuvchi sodda savollar hamda o'quvchilarni fikrlashga chorlaydigan muammoli savollar yozib qo'yiladi. Sodda savollar yozilganligining asosiy sababi sizga ma'lumki faqat agar muammoli savollar yozilsa a'lo baholarga o'qiydigan o'quvchilar javob berishi mumkin, lekin past o'zlashtiruvchi o'quvchilar javob bera olmasligi mumkin. Shuning uchun ham sodda savollar sinfdagi barcha o'quvchilar ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilar o'rtaida raqobat kelitirib chiqaradi.

4. Daraxt novdalariga yuqoridagi tartibda savollar yozib qo'yilgandan so'ng, o'quvchilarning javoblari qisqartirilib, daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Javoblar to'g'ri yoki savoldan ozroq chetlashgan, noto'g'ri bo'lsa ham daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Savol tug'ilishi mumkin nima uchun noto'g'ri yoki mavzudan ozroq chetlashgan javoblar ham yozib boriladi. Buning asosiy sababi tahlil

jarayonida o'quvchining hatosini o'quvchilar to'g'irlashadi va bu jarayon esa baxs-munozarani keltirib chiqaradi.

5. Daraxtning „Javoblar” qismidagi javoblar o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib eng to'g'ri va eng maqbul xulosa javobi daraxtning „Javoblar” qismidan chiqqan „Javoblar xulosasi” qismiga yoziladi. Shu tartibda hamma savollarga javob berib bo'lgunga qadar davom etadi.

6. „Javoblar xulosasi” qismidagi javoblarning xulosasi o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib, eng so'nggi mavzuning asosiy xulosasi daraxtning „Yakuniy mavzuning asosiy xulosasi” qismiga yoziladi. Ko'rinish turibdiki mavzuning asosiy xulosasi javoblarning bosqichma-bosqich tahlili jarayonida kelib chiqayapti.

“Sinkveyn” usuli.

“Sinkveyn”- fransuzcha so‘z bo‘lib, “besh qadam” so‘ziga to‘g‘ri keladi.

Sinkveynda narsa yoki hodisa haqida fikr qisqa ko‘rinishda ifodalanadi.

Sinkveynda 5 qatorga ma'lumotlar yoziladi.

Buni sxematik ravishda quyidagicha ko`rsatish mumkin:

1.Muammo nomi. 1 ta so‘z _____

2.Sifat. 2ta so‘z _____

3. Harakat. 3 ta so‘z_____

4.Hissiyotni ifodalovchi jumla. 4.ta so‘z _____

5.Mohiyatning yangicha ifodasi. 5 ta so‘z _____

“Yo‘l xaritasi” usuli. Ushbu metodda arablarning Movarounnahrni fatx etishining yo‘l xaritasini yillari bilan moslashtirish uchun qo‘llansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Arablarining Movarounnahr tomon yurishlarning yo'l xaritasi

654-yil- Maymurg' 667-yil-----

705-yilda-----, Chag'anion hokim jangsiz taslim bo'ladi

709-yil----- 710-yil-----?

711-yil -----? Xorazm hukumdori taklifining sababi nima?

712-yil-----? 713-yil-----? 715-yil-----?

“QORA QUTI” usuli. Bu usul samolyotdan foydalanish jarayonidagi ma'lumotlarni, ya'ni uchish parametrlarni, samolyot tiziminingko'rsatkichlarini, ekipajning o'zaro so'zlashuvining yozushi va boshqalarni avtomatik holda yozishga mo'ljallangan asbob. Qora qutidan olingan ma'lumotlar odatda aviatsion halokatlar va hodisalarini tergov qilish uchun foydalaniлади. Ushbu asbobda saqlanayotgan katta hajmdagi ma'lumotlar ichidan, sabablarni o'rnatishga yordam beradigan ma'lumotlar tanlab olinadi.

Ta'limda “Qora quti” o'quvchilarni bilimlarini nazorat qilish uchun foydalilaniladigan qaytar aloqa vositasi. Bunda ta'limdagi biror muammoni yechishda to'g'ri javoblar aniqlanadi, muammo yechimi topiladi. Noto'g'ri javoblar qora qutida qoladi.²

“Oqibat” usuli. Bu usul orqali arablar yurtimizga olib borgan siyosati haqida tushuncha berish. Qo'yilgan xatoliklarni to'g'rilab chiqishda foydalanish mumkin.

1. Mahalliy oromiy yozuvida bitilgan diniy va ma'rifiy kitoblarni, ilmiy asarlarni va qimmatli hujjatlarni hamda sanamlarni gulxanlarda yoqib, yo'q qilib tashlaydilar.
2. Buxorodagi budda ibodatxonasi haykallarining parchalab tashlangani,

Afrosiyob saroy devorlariga solingan suratlardagi odam rasmlarining ko‘zлari o‘yilib, bo‘yinlariga qilich bilan chizib yuborilganligi bunga yaqqol misoldir.

3. Qutayba Quva shahrining markazida joylashgan zardushtiyalar ibodatxonasini jome masjidigaaylantirdi.

4. Marv, Farg‘ona, Xorazm va Samarqand kabi shaharlarda shahriston yoki undagi xonadonlarning qoq yarmi arablar va ular bilan birga kelgan ajamlar (eronliklar)ga bo‘shatib beriladi.

3-topshiriq.Xalifalik istilosi Muvorounnahrda qanday oqibatlarga olib kelganligi to‘g‘risida fikr yuriting sulh tuzgan shaharlar.

².H.Qobulova. O‘zbekiston tarii fanidan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashq daftari. Qo‘llanma. Buxoro, 2021-yil, 245-bet

4-topshiriq.

Qaysi shaharlarda shahriston yoki undagi xonadonlarning qoq yarmi arablar va ular bilan birga kelgan ajamlar (eronliklar)ga bo‘shatib beriladi.

“Ikki qismlik kundalik” usuli.

Bu usuldan ham matn bilan ishslash jarayonida foydalanish mumkin.Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o‘quvchilarni ijodiy tafakkurga undaydi, ularning mustaqil fikr yuritishlarini kuchaytiradi. Berilgan matn o‘qib chiqilgach, daftar varag‘i quyidagi tarzda ikki qismga bo‘linadi:


Chap tomondagi «Parcha» deb yozilgan qismga o‘quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta’sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ehtimol, bu ularga shaxsiy tajribalaridan nimanidir eslatgandir, balki ularni qiziqtirgan yoki o‘ylantirib qo‘ygandir. Balki ular bu fikrga, narsaga qo‘shilmashlar. Balki bu narsa o‘quvchi uchun yangilikdir, balki shu narsa mohiyatini tushunib yetmagandir.

Varaqning «Sharh» deb yozilgan o‘ng tomoniga chap tomondagi tanlangan parcha (yoki parchalar) ga sharh yoziladi. Bunda nima uchun ushbu parchani tanlab olganligi, bu narsa uni nima haqida o‘ylashga majbur etganligi, shu munosabat bilan unda qanday fikrlar tug‘ilganligi haqida sharh beriladi.

“ANTIVIRUS” metodi.

O‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi. Ularga mavzuga oid matn beriladi. Bu matn “viruslangan” bo‘lib, ya’ni matnda ayrim xatoliklar mavjud bo‘ladi. O‘quvchilar matn bilan tanishib “virusli” so‘zlarni aniqlab unga qarshi “antivirusli” so‘zni, ya’ni to‘g‘ri javobni topishlari kerak bo‘ladi. Matndagi —virus” va unga qarshi “antivirusni” to‘g‘ri va birinchi topgan guruh g‘olib sanaladi.

Bu metodni yakka tartibda har bir o‘quvchining bilimini sinashda ham qo‘llash mumkin



O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuning mazmun mohiyatidan kelib chiqib tarix darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ilg‘or usullari asosida darslarni tashkil etish bugungi fan o‘qituvchilarining oldidagi birinchi vazifadir. Prezidentimiz rahbarligidagi hukumatimiz, maktab o‘quvchilarini

innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirishmasalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning “Tarix millatning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganuvchi fandir” degan fikrlari qadimgi tariximizdagи soliq tizimlarini o‘quvchiga o‘rgatish, bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.³

³.“Umumta’limfanlarmetodikasi” jurnali 2016- yil ,1-son, 32-bet

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonuning mazmun mohiyatidan kelib chiqib tarix darslarida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ilg‘or

usullari asosida darslarni tashkil etish bugungi fan o‘qituvchilarining oldidagi birinchi vazifadir.Prezidentimiz rahbarligidagi hukumatimiz, maktab o‘quvchilarini innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida yuksak ma’naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta’lim tizimini takomillashtirishmasalalariga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritilar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitratning “Tarix millatning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rganuvchi fandir” degan fikrlari qadimgi tariximizdagи soliq tizimlarini o‘quvchiga o‘rgatish, bugungi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O‘zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990.

2.H.Qobulova. O‘zbekiston tarii fanidan o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan mashq daftari. Qo‘llanma. Buxoro, 2021-yil

3.“Umumta’lim fanlar metodikasi” jurnali. 2016- yil ,1-son.

4. Qo‘sishimcha ma’lumot uchun elektron manzillar:

www.eduportal.uz

www.ziyonet.uz

www.istedod.uz